

SHAYXZODA SHE'RIY ZAMONAVIY QALAM TEBRATDI

*Toshkent davlat transport universiteti
Boyxurozov Diyorbek Sherzod o‘g‘li*

Annotatsiya: Shayxzoda she’riy ijodida, asosan, zamonaviy mavzularda qalam tebratdi, dramaturgiyasida esa, tarixiy o’tmishga teran nazar tashlab, undagi zamonaviy muammolarni yoritishga yordam beruvchi siymolar va voqealarga yangi badiiy hayot bag‘ishladi. O‘zbek adabiyotining atoqli namoyondalaridan biri, mashhur shoir, zabardast dramaturg, adabiyotshunos olim va tarjimon Maqsud Shayxzoda aql ma’nosidagina emas, siymo ma’nosida ham hammamizdan ajralib turardi. Muxtor og'aning beozor savoli unga erish tuyulmadi.

Kalit so‘zlar: Shoir, asar, Maqsud Shayxzoda, kitob, she‘r, janr?

Shayxzoda she’riy ijodida, asosan, zamonaviy mavzularda qalam tebratdi, dramaturgiyasida esa, tarixiy o’tmishga teran nazar tashlab, undagi zamonaviy muammolarni yoritishga yordam beruvchi siymolar va voqealarga yangi badiiy hayot bag‘ishladi. U umrining so‘nggi yillarida Beruniy to‘g‘risida so‘nggi sahna asarini yozdi.

Shayxzoda, badiiy ijodning barcha tur va janrlarida asarlar yozibgina qolmay, adabiyotshunos va tanqidchi sifatida ham samarali ijod qilgan. 1941-yildayoq „Genial shoir“ monografiyasini e’lon qilgan Shayxzoda umrining so‘nggi kunlariga qadar Navoiy hayoti va ijodi bilan muttasil shug‘ullanib keldi.

Shayxzoda Pushkinning “Mis chavandoz”, Lermontovning “Kavkaz asiri”, Mayakovskiyning “Juda soz” dostonlari va ko‘plab she’rlarini, Shekspirning “Hamlet”, “Romeo va Julietta” tragediyalari va sonetlarini, Nozim Xikmatning she’rlarini, ozarbayjon shoirlari asarlarini va o‘zbek tiliga o‘girdi.

Shayxzodaning o‘zbek adabiyoti tarixi, o‘zbek xalq og‘zaki ijodiyoti, xususan, Alisher Navoiy ijodini tadqiq etish borasida yaratgan ilmiy ishlari ham tahsinga sazovordir. U filologiya fanlari nomzodi, dotsent ham edi. Shayxzoda asarları dunyoning bir necha tillariga puxta o‘girilgan.

Shayxzoda adabiy bilim doirasining kengayishi, ijodining mumtoz jahon yozuvchilari badiiy tajribasi bilan boyishida tarjima muxim ro‘l o‘ynadi.

U Sh. Rustavelining „Yo‘lbars terisini yopingan paxlavon“ (hamkorlikda) eposi, U. Shekspirning sonetlari, A.S. Pushkinning she’rlari, „Mis chavandoz“ dostoni, „Motsart va Salyeri“ tragediyasi, M.Yu. Lermontovning she’rlari va „Kavkaz asiri“ dostonini, shuningdek, Nizomiy, Fuzuliy, Mirza Fatali, Oxundov, Ezop, Esxil, Gyote, Bayron, Mayakovskiy, Nozim Hikmat va boshqa yozuvchilarning ayrim asarlarini o‘zbek tiliga katta mahorat bilan tarjima qildi.

U san'at va adabiyotni sevar, tarix va falsafaga qiziqardi, Oqtosh ziyolilar bilan turli masalalarda suhbatlashardi. Yosh Maqsud Nizomiy va Firdavsiy, Navoiy va Fuzuliy, Pushkin va Shekspir kabi buyuklar nomini ilk daf'a ana shu suhbatlarning birida eshitadi va bu muhit unga adabiyotga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi.

Maqsud Shayxzoda Oqtoshda ibridoiy maktabni bitirgach, 1921-yili Boku dorilmualliminiga o'qishga kiradi va uni tugatgach Dog'istonning Darband, Bo'ynoq shaharlarida muallimlik qilgan. U 1926-yili Adhem Fayziy tashkilotiga a'zo etilgan "Milliy firqa" tashkilotiga a'zo bo'lib, musovotchilar harakatida faol qatnashgani uchun 1928-yili hibsga olinib, Toshkentga surgun qilingan. Umrining oxiriga qadar shu yerda yashab, ijod qilgan. Albatta, sho'ro hukumati Shayxzodani 1929-yili yosh shoirning o'zbek tilidagi dastlabki she'ri "Sharq haqiqati" gazetasi sahifalarida bosilib chiqadi. Oradan ko'p o'tmay, Shayxzodaning birinchi to'plami "O'n she'r", keyinroq "Undoshlarim", "Uchinchi kitob", "Jumhuriyat" kabi to'plamlari nashr etiladi

O'zbekistonda ham ta'qiblar va tahqirlardan benasib qoldirgani yo'q. Muhimi shundaki, Shayxzoda "tole" doim erkalamaganiga" qaramay, umrining oxiriga qadar o'zbek xalqining sadoqatli farzandi sifatida faoliyat ko'rsatdi va O'zbekiston uning ikkinchi vatani bo'lib qoldi. Shayxzoda Toshkentga kelgach, avval Narimonov nomidagi texnikumda dars beradi, keyin "Sharq haqiqati", "Qizil O'zbekiston", "Yosh leninchi" gazetalarida ishlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Maqsud Shayxzoda" – Naim Karimov, 2018, T.
2. Mamurova, F. I. (2021, May). ARTIST OF UZBEKISTAN MAKSUD SHEIKHZADE. In *E-Conference Globe* (pp. 176-178).
3. Mamurova, F. I., & ugli Abdubahabov, A. A. (2023). TWO FOLK POETS. "TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE", 1(3), 23-30.
4. Islomovna, M. F., & Abduvoxob o'g'li, A. A. (2023, January). Maqsud Shayxzodaning Hayoti Va Ijodi. In *Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences (USA)* (pp. 19-20).
5. Mamurova, F. (2023). MAQSUD SHAYXZODANING ADABIY MEROXI. *Бюллетень студентов нового Узбекистана*, 1(11), 9-11.
6. Mamurova, F., & Aktamova, A. (2024, October). DEDICATION TO MAQSUD SHAYKHZODA. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE (Vol. 1, No. 10, pp. 294-298).
7. Mamurova, F., & Ruzmatova, Z. (2024, October). PHILOSOPHER OF THE POET, WISDOM. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS (Vol. 1, No. 9, pp. 89-92).
8. Mamurova, F., & Abdisaidov, N. (2024). MAQSUD SHAYXZODANING BOLALIK DAMLARI. Академические исследования в современной науке, 3(25), 125-131.